

**MAHALLABAY ISHLASH VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI
LAOG (LOYIHANI AMALGA OSHIRISH GURUHI)NING XARIDLAR BO‘YICHA
MUTAXASSISI LAVOZIMIGA OCHIQ TANLOV E‘LON QILADI**

LAVOZIM MAJBURIYATLARI

1. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, moliyaviy bitimlar talablari hamda Xalqaro moliya instituti (XMI) qoidolari va tartib-taomillariga muvofiq, loyiha doirasida belgilangan barcha (LAOG tomonidan amalga oshiriladigan) xaridlar bo‘yicha faoliyatni amalga oshirilishini va rahbariyatga loyiha doirasidagi barcha xarid operatsiyalarini nazorat qilish imkonini beruvchi hisobotlarni taqdim etilishini ta‘minlash.

2. Ish dasturi va tasdiqlangan budjetga asosan loyiha doirasidagi xaridlar bo‘yicha tadbirlar va xizmatlar turlarini aniqlash.

3. Xaridlar rejalarini qayta ko‘rib chiqish va yangilash bo‘yicha takliflar berish.

4. Tender paketlarini tayyorlash, turli xil xarid usullariga muvofiq loyiha bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar(ish va xizmatlar) uchun texnik shartlar va texnik topshiriqlarni tayyorlash bo‘yicha tegishli texnik mutaxassislar bilan ishlash.

5. Xaridlar texnologiyalari, asbob-uskunalar yetkazib beruvchilari, XMIning xaridlar va to‘lovlar bo‘yicha yo‘riqnomalari, standart va namunaviy tender hujjatlari hamda loyiha doirasida xaridlar uchun zarur bo‘lgan boshqa resurslar to‘g‘risida ma‘lumotlar bazasini yuritish.

6. Xaridlar (tenderlar) to‘g‘risidagi e‘lonlarni tayyorlash, ularni xalqaro va mahalliy matbuot (platformalar)da e‘lon qilish, XMI va mahalliy qonunchilik tartib-qoidalariga muvofiq xaridlarni tashkil etish.

7. Tender hujjatlarida nazarda tutilgan mezonlar asosida kelib tushgan takliflarni baholashda manfaatdor texnik ishchi guruhlar va baholash komissiyalariga ko‘maklashish va maslahatlar berish.

8. XMIning standart shakllariga muvofiq kompleks baholash hisobotlari tayyorlanishini hamda tender ishtirokchilari takliflarini va konsultant (ekspertlar)ni baholash hisobotlarini ko‘rib chiqish va kelishish uchun XMIGA o‘z vaqtida yuborilishini ta‘minlash.

9. Loyiha doirasidagi xaridlar bo‘yicha tadbirlarning borishi to‘g‘risida choraklik hisobotlar va yillik hisobotlarni tayyorlash.

10. Shartnomalar tuzish, shartnomalar bo‘yicha (tovar va xizmatlarni) yetkazib berilishini nazorat qilish, yetkazib beruvchilar (pudratchilar)ga to‘lovlarni amalga oshirish uchun xarid qilingan tovar va xizmatlarni tekshirish (sinov qilish).

11. Ish rejalariga muvofiq yetkazib beruvchilar tomonidan tovarlar va xizmatlarni o‘z vaqtida yetkazib berilishi, pudratchilar va maslahatchilar tomonidan ishlarni bajarishni muvofiqlashtirish.

12. Hisob-fakturalarni tekshirish va tasdiqlash.

13. Loyiha subyektlarning xaridlar bo‘yicha harakatlarini muvofiqlashtirish va monitoring tizimini yaratish.

14. Boshqa lavozim majburiyatlari.

QO‘YILADIGAN TALABLAR

Iqtisodiyot, moliya, menejment yoki injiniring yo‘nalishlari bo‘yicha oliy ma‘lumotga ega va tegishli sohada kamida 5 yillik tajribaga ega bo‘lishi, jamoada ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Xaridlar bo'yicha xalqaro amaliyot va XMilarning talablari to'g'risida bilimlarga ega va XMilar bilan o'zaro hamkorlik tajribasiga ega bo'lishiga ustunlik beriladi.

Yuqori kompyuter ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Bundan tashqari texnik ingliz tilini bilishi talab qilinadi.

ISH SHAROITLARI

Ish kunlari: dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma. Dam olish kunlari: shanba, yakshanba.

Ish vaqti: 09:00 dan 18:00 gacha.

Ish joyi: Toshkent shahri.

TASHKILOT TO'G'RISIDA MA'LUMOT

Manzil: O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahri Qoratosh ko'chasi 1-uy, 10-qavat.

Telefon raqam: +998712386933

Elektron manzil: fcd.agency@mineconomy.uz va sredp.ade@gmail.com

Qo'shimcha ma'lumot: LAOG (Loyihani amalga oshirish guruhi) Xalqaro moliya instituti ishtirokida 2022–2026-yillar davomida respublikamizda qishloq tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan loyihani amalga oshirish uchun tashkil qilinadi.

Ma'lumotnomangiz (obyektivka, rezyume, CV)ni siz talabgor bo'lgan lavozimni aniq ko'rsatgan holda yuqorida keltirilgan elektron manzillarga yuborishingizni so'raymiz.